



**“OILA INSTITUTINING IJTIMOIIY-
PSIXOLOGIK MUAMMOLARI”
mavzusidagi xalqaro konferensiya**

ТО‘РЛАМИ

2025-yil 30-31-oktyabr

СБОРНИК

**Международной конференции на тему
«СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ПРОБЛЕМЫ ИНСТИТУТА СЕМЬИ»
30-31 октября 2025 года**

COLLECTION

**International Conference on the
topic”SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS
OF THE FAMILY INSTITUTE”
October 30-31, 2025**

“Oila institutining ijtimoiy-psixologik muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy anjuman materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. - 630 b.

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

B.B.Xatamov	- Profi University ta‘sischisi
N.E.Xoshimov	- Profi University bosh direktori
G‘.B.Shaumarov	- Profi University rektori
E.G.Zelenskaya	- Profi University HR direktori
A.A.Abdazimov	- Profi University Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
Z.A.Shaumarova	- Profi University O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori
G.Q.Karimova	- Profi University Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori
Z.A.Narzikulov	- Profi University Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektori
U.Sh.Pulatov	- Profi University rektor maslahatchisi
D.B.Xolmatova	- Profi University Kengashi ilmiy kotibi

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

U.D.Qodirov	- Psixologiya fanlari doktori, professor
K.A.Farfiyeva	- Profi University professori, psixol.f.d.
N.M.Dalimova	- Profi University professori, psixol.f.d.
D.R.Raxmanova	- Profi University dotsenti v.b., psixol.f.n.

Taqrizchilar:

X.Abdusamatov	- Psixologiya fanlari doktori, dotsent
N.B.Atabayeva	- Psixologiya fanlari doktori, professor
A.I.Saidov	- Psixologiya fanlari doktori, professor

Matn tahrirchilari:

D.B.Xolmatova	- Profi University Kengashi ilmiy kotibi
N.P.Nizamova	- “Pedagogika va psixologiya” kafedrası mudiri
G.G.Kuvandikova	“Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas‘uldirlar.

© “Profi University” Kengashining 2025-yil 20-oktyabrdagi 2-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

10. Markaziy Osiyo hujjatlari to‘plami. T. II. — Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, 1972.

**FARZAND TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLAR VA ADABIY
MEROSIMIZNING MA’NAVIY AHAMIYATI
(Kaykovusning “Qobusnoma” asari misolida)**

Egamova Shoxida Djalilovna
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrası

Annotatsiya. Ushbu maqolada oiladagi farzand tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, unda milliy qadriyatlar, adabiy merosimizning ma’naviy ahamiyati, xususan, Kaykovusning “Qobusnoma” asari va unda ilgari surilgan ta’lim, tarbiya, aql, sharqona odob, axloq, ilm, hunar, sabr, qanoat, rostgo‘ylik, yaxshilik, yomonlik, mehnatsevarlik, saxiylik kabi insoniy fazilatlar tarannum etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, milliy tarbiya, Kaykovus, “Qobusnoma”, ta’lim, tarbiya, aql, sharqona odob, axloq, ilm, hunar, sabr, qanoat, rostgo‘ylik, yaxshilik, yomonlik, mehnatsevarlik, saxiylik.

Аннотация. В данной статье речь идет о воспитании детей в семье, при этом особое внимание уделяется национальным ценностям и духовному значению нашего литературного наследия, в частности, произведению Кайкавуса «Кобуснома». В нем воспеваются такие человеческие качества, как образование, воспитание, разум, восточная вежливость, нравственность, наука, мастерство, терпение, удовлетворенность, правдивость, доброта, зло, трудолюбие и щедрость.

Ключевые слова: национальные ценности, национальное воспитание, Кайкавус, «Кобуснома», образование, воспитание, разум, восточная вежливость, нравственность, наука, мастерство, терпение, удовлетворенность, правдивость, доброта, зло, трудолюбие, щедрость.

Annotation. This article discusses the upbringing of children in the family, focusing on national values and the spiritual significance of our literary heritage, particularly Kaykovus’s work “Qobusnoma.” The work praises human qualities such as education, upbringing, wisdom, oriental etiquette, morality, knowledge, craftsmanship, patience, contentment, honesty, kindness, evil, diligence, and generosity.

Keywords: national values, national upbringing, Kaykovus, Qobusnoma, education, upbringing, wisdom, oriental etiquette, morality,

knowledge, craftsmanship, patience, contentment, honesty, kindness, evil, diligence, generosity.

“Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta‘sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma‘naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma‘naviy qudrati va boqiy an‘analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz¹⁸”.

Darhaqiqat, kelajagimizning munosib vorislari-yoshlarimizning barkamol inson qilib tarbiyalashda ajdodlar merosiga tayanish, ayniqsa milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nihoyatda muhimdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” deb nomlangan kitobida “Biz yoshlarimizning milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”, deb ta‘kidlaydi. Zero, Milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o‘tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir¹⁹.

Millat tarbiyasi hamma zamonlarda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan masala bo‘lib, azaldan Sharq allomalari, mutafakkirlari, olimu ulamolari farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratib kelganlar. Farzand tarbiyasi uchun dasturulamal vazifasini o‘taguvchi bir qator noyob durdona asarlar mavjudki, ularning orasida Kaykovusning “Qobusnoma” asari o‘zining ma‘naviy ahamiyati, badiiy qimmatini jihatidan alohida ajralib turadi. Unsurulmaoliy Kaykovus tomonidan yaratilgan ushbu asar Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan mashhur asar sanaladi.

“Qobusnoma” pand-nasihati tarzida yozilgan didaktik asar bo‘lib, unda farzand tarbiyasida eng muhim o‘rinni egallaydigan axloq masalasiga alohida e‘tibor qaratadi. Kaykovus yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarini tarkib toptirishni istaydi, yoshlarni doimo to‘g‘rilikka, rostgo‘ylikka, yaxshilikka, adolatlilikka, mehnatsevarlikka undaydi: *“Ey farzand, yaxshilik qil va qilg‘on yaxshilikdin hargiz pushaymon bo‘lmag‘il. Bir kishig‘a bir yaxshilik qilsang, ko‘rgilki, yaxshilik qilg‘on vaqtda u kishiga naqadar rohat yetg‘on bo‘lsa, sening ko‘nglingga ham undan ziyodroq shodlik va xurramlik yetishur. Agar bir kishiga yomonlik qilsang,*

¹⁸ Mirziyoyev Sh. Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega. <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>.

¹⁹ Inamov.Q. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. <https://cyberleninka.ru/article/n/qadriyatlar-va-yoshlar-tarbiyasi/viewer>

unga naqadar ranj yetsa, sening ko‘nglingga ham ul miqdor tanglik yetishur. Demak, bu jahonda yaxshilik va yomonlik mukofoti, albatta, yetgusidur. Mening bu so‘zimg‘a munkir bo‘lmag‘ilki, har kishi butun umrida bir kishiga yaxshilik va yomonlik qilg‘on bo‘lsa, bu haqda andisha qilsin, mening bu so‘zum rostdur. Bas, agar qila olsang hech kishidan yaxshilikni darig‘ tutmag‘il, yaxshilikning foydasi bir kuni ro‘yobga chiqar”²⁰.

Yaxshilik qilish xususida so‘z borar ekan, xalq mehnatining qadriga yetishlikni, o‘zganing haqqiga xiyonat qilmaslikni, rostgo‘y bo‘lishni, til bilan dil birligi insoniy fazilatlarining eng ulug‘i ekanligini uqtirib o‘tadi: *“Ey farzand, hargiz yaxshilik qilmoqni tark etmag‘il, hamisha yaxshilikni xaloyiqqa ko‘rguzg‘il va also uning aksin ko‘rguzmag‘il, boshqa til bila so‘zlamag‘il. Boshqa ko‘ngil bila fikr etmag‘il, bug‘doyni ko‘rguzib arpani sotmag‘il va barcha yerda o‘zingdin dod berg‘il. Xususan, o‘zingning yaqin qarindoshlaringga imkon boricha yaxshilik qil va o‘zingning qabila va urug‘ing qarilarini izzat, hurmat qil. Xalqning o‘z hunarini ko‘p ko‘rg‘il, haqqin yaxshi bilg‘il”.*

Asarning buyuk ahamiyati shundaki, unda asosan sharqona odob, axloq, madaniyat, urf-odatqa yo‘g‘rilgan insoniy fazilatlar tarannum etiladi. Kaykovus yirik davlat arbobi sifatida o‘g‘li Gilonshohga nafaqat podshohlik, vazirlik kabi ulug‘ martabadan tortib, yaxshilikka undaydigan jamiki umuminsoniy masalalar haqida ta‘lim beradi. Asarning badiiy qimmatini shundaki, hamma zamonlarda, hamma ijtimoiy-siyosiy tuzumda ham yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda o‘zining qiymatini yo‘qotmaydi. Jumladan, asarda insoniy fazilatlar haqida so‘z borar ekan, *“aql dan boy bo‘lmoq”* zikrida bir qator qimmatli fikrlar bildiradi: *“Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aql dan boy bo‘lmoqqa say‘ ko‘rguzg‘ilki, mol bila boy bo‘lg‘ondan, aql bila boy bo‘lg‘on yaxshiroqdur, nedinkim, aql bila mol jam etsa bo‘lur, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilg‘il, aql bir moldurki, uni o‘g‘ri lolmas, u o‘tda yonmas, suvga oqmas. Bas, agar aqling bo‘lsa, hunar o‘rgang‘il, nedinkim, hunarsiz aql-boshsiz tan, suratsiz badandekdur”²¹.*

Kaykovus aql haqida so‘z borganda, aqlni insonga aytib o‘rgatib bo‘lmasligini, aqlning ikki turi mavjudligini, biri tug‘ma, ikkinchisi esa kasbiy aql ekanligini bayon qiladi. Agar tug‘ma aql bo‘lmasada, kasbiy aqlni imkon qadar egallash lozimligini ta‘kidlaydi. Bu borada allomaning ushbu fikrlari o‘rinlidir: *“Aqlni kishiga zo‘rlik bila o‘rgatib bo‘lmas. Bilg‘ilki, aql ikki xildur; biri tug‘ma aql dur, uni azaliy derlar, ikkinchisi kasbiy aql, buni muktasib (kasb qiluvchi, ishlab topuvchi) derlar, kasbiy aqlga donish ham derlar. Bas, agar azaliy aql bo‘lmasa, men va sen hech*

²⁰ Kaykovus. “Qobusnoma”. -T.: “O‘qituvchi”, 2006. -B.39. (Keyingi o‘rinlarda keltirilgan misollar yuqorida ko‘rsatilgan asardan olingan).

²¹ Ko‘rsatilgan asar. -B.37.

iloj qila olmasmiz. Sen muktasib aqlni pesha qilmoqda kamchil qilmag‘il, qurbing yetg‘onicha o‘rgang‘il”.

Kishiga nafaqat aqlli, balki ilmi, hunarli bo‘lishi hayotda martabasining ulug‘ bo‘lishi uchun zamin hozirlashini uqtirib o‘tadi. Agar kishi oliynasab bo‘lgani bilan hunarsiz bo‘lsa o‘zgalari oldida hurmat, e‘tiborga noloyiq bo‘lishi ta‘kidlanadi: “Ey farzand ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, xori mug‘ilon (tikanli buta)ning tani bordur, ammo soyasi yo‘qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug‘ilon (tikanli buta) yanglig‘ na o‘ziga va na o‘zgaga foyda berar. Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo‘lsa, ammo hunari bo‘lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo‘lur. Agar Kishida ham nasab gavhari va ham hunar zevari (bezak, ziynat) bo‘lmasa, undan battarroqdur. Jahd qilg‘il, agar gavharing har nechakim asl bo‘lsa, unga g‘arra bo‘lmag‘il, nedinkim tan gavhari hunar zevari bila muzayyan (ziynatlangan) bo‘lmasa, u hech narsaga arzimagusidur. Andoqkim debdurlar: “Ulug‘lik aql va donishlik biladur, gavhar va nasab bila bo‘lmas”.

Kaykovus so‘z hunari haqida fikr yuritar ekan, muomala madaniyati xususida ham to‘xtalib o‘tadi. Inson o‘zining o‘zgalarga qilgan muomalasi, so‘zlashish odobi bilan hurmat qozonishini, suhbatdoshi qalbida ilig‘ taassurot uyg‘otishini qiyidagicha tasvirlaydi: “...tilingni yaxshi hunar bila o‘rgatg‘il va muloyim so‘zdin boshqa narsani odat qilmag‘il. Nedinkim, tilga har nechuk so‘zni o‘rgatsang, shuni aytur, so‘zni o‘z joyida ishlatg‘il, so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so‘zlamag‘ilki, foydasizdur. Bunday befoyda so‘z ziyon keltirur va har so‘zki undan hunar isi kelmasa, bunday so‘zni gapirmaslik lozim”.

Atrofidagi insonlarga befarq bo‘lmaslikka, oz gapirib, o‘zidan aqlli donishmand insonlarni ko‘proq tinglashga, fikr-mulohaza qilishga undaydi. Hamisha ko‘ngul ko‘zi va aql nazari bilan ish tutish insonga koni foyda ekanligini, aytib o‘tadi: “Xaloyiqning aybi va hunariga boqqil, ularning naf va zarari na chog‘liqdur. Buning foyda va ziyonlari qaysi yerga qadar borur, undan so‘ng o‘z manfaatingni talab qil. Ko‘rg‘il, qaysi narsa xalqni manfaatg‘a yaqin qilur. O‘zing ana shundog‘ aql va hunarni o‘rganmoq bila balandlikka ko‘tarilursan. Bu ish senga ikki narsa bila hosil bo‘lur; yo bilg‘on hunarga yarasha ish qilmoq bila yo bilmag‘on hunarni o‘rganmoq bila”.

Inson yashagan umrini sarhisob qilishi darkor ekanligini, har bir soniyadan unumli foydalanish lozimligini bot-bot uqtirib o‘tadi. Hunarni nafaqat donodan, balki nodonni amalidan xulosa chiqargan holda o‘rganish zarurligini aytib o‘tadi: “Ey farzand, sen ham hunarni donodin o‘rganmasang, nodondin o‘rgang‘il. Barcha katta, kichikka hunar

o‘rgatmak vojibdur, nedinkim, kishi hunar o‘rganmoq bila o‘z hamrohlaridin baland martabada bo‘lur. Chunki o‘zingda hunar ko‘rib o‘z tenglaringda ul fazilatni ko‘rmasang, o‘zingni ulardin baland ko‘rarsan va ular yana seni o‘zlaridin baland martabada bilurlar”.

Hunar o‘rganmoq zikrida so‘z borar ekan, hunarli kishi elda aziz va ulug‘ bo‘lishini, ilmu hunari ila o‘zgalarning hurmatiga erishishini, hayotda o‘z o‘rnini topishini, hunar o‘rganishdan, mehnat qilishdan zavq olish zarurligini, natijada ham jismonan baquvvat, sog‘lom, ma‘naviy va moddiy tomondan boy bo‘lishini uqtirib o‘tadi. Yalqovlik, dangasalik bedavo dard ekanligini, inson o‘zining mustahkam irodasi, tinimsiz mehnati ila samarali natijaga erishishi mumkinligini ta‘kidlaydi: “Hunarmand kishi uldurkim, fazli va hunar sababi bila qadr va martabasi o‘zgalardin baland bo‘lg‘on ekanini bilib, fazl va hunarg‘a avvalgidin ziyodroq harakat qilg‘ay va burung‘idin ziyodroq fozil va hunarmand bo‘lg‘ay. Har kishiki bundoq qilsa, tezda xalqning orasida aziz va ulug‘ bo‘lg‘ay. Hunar o‘rganmoqda mehnat qilmoq, badanni yalqovlik, ya‘ni bekorchilikdin qutqarmoq foydalidir, nedinkim, bekorchilik badanni fasod va bemorlig‘iga sabab bo‘lur”.

Alloma ilm talabi haqida so‘z borganda, uning o‘ziga xos mashaqqati, qonun-qoidasi borligini, ilmga do‘st tutinish lozimligini, uni sabr ila, qanoat ila egallash zarurligini, harakatdan to‘xtamaslikni, ‘kitob va darsga mehr-muhabbat ila ko‘ngil berish natijasi a‘lo darajada ekanligini ta‘kidlaydi: “Ilmni do‘st, bekorchi turmushni dushman tutg‘il. Sohibi tamkin va sabuk ruh (shod-xurram, harakatchan) bo‘lg‘il, kech yotg‘il va erta turg‘il, kitob va darsga haris (biror narsaga berilish) bo‘lg‘il, ishdin malul (qayg‘uli, g‘amgin, xafa) bo‘lmag‘il, hifz (saqlash, yodlash) etg‘il, takror qilg‘il, haqshunos (to‘g‘ri, rost, adl, layoqat) bo‘lg‘il, harna eshitsang, yod qilg‘il, taqlidga rozi bo‘lmag‘il. Oz so‘zlag‘il va uzoqni o‘ylag‘il. Chunki har bir tolibi ilm agar bu sifatda bo‘lsa, tez fursatda zamonning yagona kishisi bo‘lur”.

Darsni muqaddasligini yodda tutish, ilm egallash yo‘lida mehnatdan qochmaslik, jonkuyarlik ila egallagan bilimlarini amalda, tajribada qo‘llay olish, e‘tiqodli bo‘lish darkorligini quyidagi fikrlari ila bayon qiladi: “Ey farzand, hifzing va dars o‘qishing ko‘p bo‘lsun. Har kitobni va juzvni (daftarni) muqaddas tutg‘il. Olim beamal bo‘lmag‘ay. Ilmni yaxshi o‘rgang‘il. Bilg‘on ilmingni yaxshi iboralar bila bayon qilg‘il, to bema‘ni da‘vo bila xijolatmand bo‘lmag‘aysan. Va‘z va pandni xavf va rijo bila aytg‘il. Shundoq so‘zlarni ko‘proq aytg‘ilki, o‘zing unga qodir bo‘lsang va senga ul so‘z yaxshi ma‘lum bo‘lg‘on bo‘lsa, toki bema‘ni da‘vo bila sharmanda bo‘lmag‘aysan”.

Kaykovus yoshlarda donolik, suxandonlik, yaxshilik, rostgo‘ylik, adolatlilik, samimiyylik, saxiylik, mehnatsevarlik, juvonmardlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishni istaydi va asarning davomida ana shu

ezgu niyatlarini amalga oshirishga intiladi. Ayonlashadiki, allomaning qarashlarida inson tarbiyasi masalasi muhim o‘rin tutadi. U axloqlilikning muhim belgilaridan biri donolik deb hisoblaydi: Ey farzand, sen har nechaki dono bo‘lsang o‘zingni xalqdin donoroq bilmag‘il, nedinkim, o‘zingni nodon bilding-dono bo‘lding. Rost, dono ul kishidurkim, qachon o‘zin nodon va ojiz hisoblar”.

Donolik xususida so‘z borganda, eng avvalo, insonni kamtar bo‘lishga chaqiradi. Ko‘p bilib oz so‘zlamog, so‘zni o‘z o‘rnida ishlatmog, andishali bo‘lmoq kishini faqat tarbiyasidan dalolat ekanligini uqtiradi: “Ey farzand, agar har nechakim suxandon bo‘lsang o‘zingni bilg‘ondan kamroq tutg‘il, to so‘zlash vaqtida nodon va beburd bo‘lib qolmag‘aysan. Ko‘p bilib, oz so‘zlag‘il va kam bilib, ko‘p so‘z demag‘il. Nima uchunki aqlsiz shundog kishi bo‘ladur-u ko‘p so‘zlar. Debduurlarki, xomushliq salomatlik sababidur, chunki ko‘p so‘zlaguvchi oqil kishi bo‘lsa ham, avom uni aqlsiz derlar. Aqlsiz kishi xomush bo‘lsa, uni oqil hisoblaydilar. Ko‘shish qilkim, xaloyiq seni ta‘rif qilsunlar va shundoq so‘z deg‘ilkim, u ishga yarasun, bekor va zoye ketmasun”.

Suxandonlik xususida so‘z borar ekan, o‘quvchini notiq bo‘lishga, shirinso‘z bo‘lishga undaydi. Rostgo‘ylikka hamisha hamroh tutinishni, yolg‘on so‘zlamoqlikning oqibati yomonlik bilan tugashini, bu esa uning martabasiga putur yetkazishini hayotiy misollar ila asoslaydi: “Kishi suxandon, suxango‘y (notiq) bo‘lishi kerak. Ammo, ey farzand, sen suxango‘y bo‘lg‘il va lekin durug‘go‘y (yolg‘onchi) bo‘lmag‘il. Rostgo‘ylikda o‘zing shuhrat qozong‘il, tokim biror vaqt zarurat yuzidin so‘z desang qabul qilg‘aylar. Har so‘z desang ham rost deg‘il va lekin yolg‘onga o‘xshag‘on rostni demag‘ilkim, rostga o‘xshagan durug‘ durug‘ga o‘xshag‘on rostdin yaxshidur, nedinkim, ul durug‘ maqbul bo‘lur, ammo ul rost maqbul bo‘lmas”.

So‘z odobida andishani ilgari tutmoqlikni, noo‘rin ishlatilgan so‘zning ozori bedavo ekanligini, oz so‘zlab donolarning mulohazalarini ko‘proq tinglash lozimligini quyidagi fikrlari ila bayon etadi: “Har so‘zni andisha bila boshlag‘il, toki aytg‘on so‘zingdin pushaymon bo‘lmag‘aysan. Andishani ilgari tutmoq har bir nav karomatdur. Agar har qancha dono bo‘lsang ham o‘zingni nodon tutg‘il, toki senga hunar o‘rgatish eshigi hamisha ochiq bo‘lg‘ay. Ey farzand, agar har nechakim suxandon bo‘lsang o‘zingni bilg‘ondan kamroq tutg‘il, to so‘zlash vaqtida nodon va beburd bo‘lib qolmag‘aysan. Ko‘p bilib oz so‘zlag‘il va kam bilib, ko‘p so‘z demag‘il. Nima uchunki aqlsiz shundog‘ kishi bo‘ladur-u ko‘p so‘zlar”.

O‘qimishli, ziyoli, donishmand insonlar bilan ko‘proq hamsuhbat bo‘lish, ularning so‘zini xushqulog‘i bilan tinglash lozimligini, qissadan hissa chiqarishini, bu esa unga hayotda juda ko‘p manfaat keltirishini dalillaydi: “Dononing pand-nasihati ko‘ngil ko‘zin ravshan qilur, nedinkim, ul pand aql va hikmat ko‘zining surmasi va to‘tiyosidur”.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Kaykovusning “Qobusnoma” asari yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda juda katta ahamiyatga egadir. Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma’naviy qiyofamiz, an’analarimiz va o‘zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni-xalq, millatni-millat sifatida birlashtiradi. Zero, o‘z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi; buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg‘uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma’naviy omil hisoblanadi²².

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega. <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>.
2. Badalbayev M. <https://uzhurriyat.uz/2017/09/07/qobusnoma-asarida-yoshlar-tarbiyasi/>
3. Inamov Q. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. <https://cyberleninka.ru/article/n/qadriyatlar-va-yoshlar-tarbiyasi/viewer>
4. Kaykovus. “Qobusnoma”. -T.; “O‘qituvchi”, 2006.
5. <https://azkurs.org/unsurul-maoliy-kaykovus-qobusnoma.html>
6. <http://tarbiyaviy.uz/asos/marifiy/alloma/kaykovus.html>
7. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/qobusnoma-danutq-odobi-masalalari>

THE ROLE OF MORAL SELF-AWARENESS IN THE FORMATION OF FAMILY VALUES IN ADOLESCENTS.

Mamanazarov Uchqun Burxon o‘g‘li

Oriental Universiteti

“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrası

katta o‘qituvchisi

Annotation. This article examines the influence of moral self-awareness on the formation of family values among adolescents. It argues that moral self-awareness is a critical factor shaping adolescents’ understanding of familial roles, emotional bonds, and moral responsibility within the family context.

Key words. moral self-awareness; family values; adolescence; responsibility; moral development; family education.

²² Inamov.Q. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. <https://cyberleninka.ru/article/n/qadriyatlar-va-yoshlar-tarbiyasi/viewer>

MUNDARIJA

КИРИШ СЎЗИ	3	
I SHO‘BA OILA INSTITUTIGA OID MILLIY AN‘ANA VA QADRIYATLARNI O‘RGANISH VA OMMALASHTIRISH HOLATI		
1.	ОИЛАНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ Шоумаров Ғайрат Баҳромович Ўзбекистон Фанлар Академияси ҳақиқий аъзоси, академик, “Profi University” ректори	4
2.	YANGI O‘ZBEKISTONDA OILA INSTITUTI: ISLOHOT VA ISTIQBOLLAR Egamberdiyeva Nodira Melibayevna O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor	9
3.	ЎЗБЕК ОИЛАСИНИНГ АЙРИМ ЭТНОПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ Қодиров Умарали Дўстқобилович Сурхондарё вилояти педагогик маҳорат маркази “Педагогика, психология ва таълим технологиялари” кафедраси мудири, психология фанлари доктори, профессор	14
4.	ПОПУЛЯРИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ СЕМЬИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ Медетова Раушан Мамадияровна заведующий отделом Национального института педагогики воспитания, доктор педагогических наук, старший научный сотрудник, Курбанов Гани Абилович старший преподаватель Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана, доцент, подполковник	18
5.	РОЛЬ СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ ДОБРОДЕТЕЛЬНОЙ ЛИЧНОСТИ В ТРАКТАТЕ АЛЬ-ФАРАБИ «ИДЕАЛЬНЫЙ ГОРОД» (АЛЬ-МЕДИНА АЛЬ-ФАДИЛА) Алиев Мухаммаджон Чориевич кандидат педагогических наук, доцент Profi University	23

6.	<p>SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF THE DEVELOPMENT OF NATIONAL CHARACTER IN THE FERGANA VALLEY FAMILIES</p> <p>Turgunboyeva Azizakhon Gulomovna Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences Associate Professor, Namangan State Pedagogical Institute</p>	27
7.	<p>ETNOPSIXOLOGIK OMILLAR VA OILAVIY MUNOSABATLAR BARQARORLIGI</p> <p>Turg'unboyeva Azizaxon Gulomovna Psixologiya fanlari falsafa doktori PhD, dotsent. Namangan davlat pedagogika instituti</p>	30
8.	<p>KITOBXON OILA — INTELLEKTUAL JAMIYAT POYDEVORI</p> <p>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna Profi University, “Boshlang‘ich talim” kafedrası v.b. dotsenti</p>	34
9.	<p>ПОДГОТОВКА ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ОСНОВЕ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ</p> <p>Хайдаров Козимбек Абдихакимович начальник Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана, PhD, профессор, полковник</p> <p>Курбанов Гани Абилович старший преподаватель Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана, доцент, подполковник</p>	39
10.	<p>АЖДОДЛАРИМИЗ МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРИ</p> <p>С.Қ. Хасанова, Х.К. Артиков Profi University, Навоий филиали катта ўқитувчилари</p>	43
11.	<p>ПОДГОТОВКА ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ОСНОВЕ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ</p> <p>Хайдаров Козимбек Абдихакимович начальник Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана, PhD, профессор, полковник</p> <p>Курбанов Гани Абилович старший преподаватель Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана, доцент, подполковник</p>	46

12.	SHAXSDA MILLIY XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISHGA OILA INSTITUTINING TA’SIRI Alimbayeva Shahlo Tursunovna Oriental universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi	50
13.	OILA MAZMUNIDAGI MAQOLLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Daulanova Xolida Iskandarovna filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Profi University dotsenti v.b.	54
14.	QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI Bayjonov Furqat Baxramovich Oriental universiteti dotsenti	58
15.	O‘ZBEK JAMIYATI TARIXIY TARAQQIYOTIDA OILA INSTITUTINING ROLI Usmanov B.X. Profi University Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri Tojiboyev R.I. Profi University Ijtimoiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi	63
16.	FARZAND TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLAR VA ADABIY MEROSIMIZNING MA’NAVIY AHAMIYATI (Kaykovusning “Qobusnoma” asari misolida) Egamova Shoxida Djalilovna Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasini	67
17.	THE ROLE OF MORAL SELF-AWARENESS IN THE FORMATION OF FAMILY VALUES IN ADOLESCENTS. Mamanazarov Uchqun Burxon o‘g‘li Oriental Universiteti “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi	73
18.	ОИЛА ИНСТИТУТИНИ ЎРГАНИШДА ҚИЁСИЙ ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ Зарифа Арзуметова “Profi University” тадқиқотчиси	77

19.	O‘ZBEKISTONDA OILA INSTITUTINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY JIHATLAR Beysenov Kenjabay Sarsanbayevich O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakul’teti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, podpolkovnik	80
20.	OILA MEHR VA OROM MANZILI Ashirmatova Moxigul Esanali qizi “Profi University” “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi	83
21.	OILA INSITUTIDA MILLIY AN‘ANA VA QADRIYATLARNING TARIXIY RIVOJI VA UNING ZAMONAVIY JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI Abdurasulova Feruza Rustamovna Diplomat University o‘qituvchisi	87
22.	РОЛЬ СЕМЬИ В ИЗУЧЕНИИ СТУДЕНТАМИ ПОЭТИКИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ Пирматова Мадина Серик кизи соискатель Национального института педагогики воспитания	90
23.	KONTEKSTUAL ARGUMENTLASH ASOSIDA OILAVIY QADRIYATLARNI MUSTAHKAMLASH VA ISHONCH-E‘TIQODNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI Adambayev Umidbek Xaitbayevich Urganch Ranch texnologiya universiteti Katta o‘qituvchisi	94
24.	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВОСПИТАНИЯ ТОЛЕРАНТНОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В СЕМЬЕ Санаев Алишер Комилжон угли Старший преподаватель кафедры непрерывного образования, Ориентал университет	98

II SHO‘BA		
OILANING HUQUQIY SAVODXONLIGINI TUBDAN YAXSHILASH VA HIMOYALASH, OILAGA OID PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI		
25.	ER-XOTINLARDA GENDER KOMPETENTLIKNI TARKIB TOPTIRISH, IMKONIYAT VA IMTIYOZLARINI OSHIRISH MUAMMOSI U.Saribayeva Toshkent amaliy fanlar universiteti, psixologiya kafedresi psixologiya fan.nom., dotsent	103
26.	ХОТИН-ҚИЗЛАРГА НИСБАТАН ЗЎРАВОНЛИКНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА ЁРДАМ КЎРСАТИШ УСУЛЛАРИ Кулдашева Гулбаҳор Давлятовна Алфраганус университети “Психология” кафедрасининг доценти	107
27.	BULLING HODISASINING O‘SMIR TARAQQIYOTIGA TA‘SIRI D.Oribboyeva NamDPI dotsenti	112
28.	YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING HUQUQLARINI TA‘MINLASH BORASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR Aliyeva Zuxra Mamatkulovna Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Maxsus kasbiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi	117
29.	ШИФОКОРЛИК КАСБИ ВА УНИНГ ЖАМИЯТДА ТУТГАН ЎРНИ Хусанбоева Шодиёна Акмалжон қизи University of Business and Science 2-курс талабаси	122
30.	PSIXOLOGIYANING JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI D.Oribboyeva NamDPI dotsenti Abdurashidova Dilfuza Akmaljon qizi NamDPI maxsus pedagogika logopediya yo‘nalishi 1-kurs talabasi	124
31.	OILAVIY TARBIYA MUHITIDA VA MEHRIBONLIK UYIDA TARBIYALANGAN BOLALAR PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI Rustamova Go‘zal Xolmuhammad qizi Namangan davlat pedagogika instituti Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi	127
32.	OILADA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASHNING HUQUQIY VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI Valiyeva Mamlakatxon Muhammadjon qizi Profi University Ingiliz tili va Adabiyoti yo‘nalishi talabasi	131

III SHO‘BA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNI YAXSHILASHNING IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI		
33.	<p>РОЛЬ СЕМЕЙНОЙ ПОДДЕРЖКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОСТИ МОЛОДЁЖИ К СОЦИАЛЬНЫМ ВЫЗОВАМ</p> <p>Р.К. Исламова¹, Н.У. Агзамходжаева²</p> <p>¹ Заведующий кафедрой внутренних болезней, Profi University, Ташкент, Узбекистан. ² PhD, старший преподаватель кафедры внутренних болезней, Profi University, Ташкент, Узбекистан</p>	135
34.	<p>ПРИМЕНЕНИЕ МАТЕМАТИКИ В РЕАЛЬНОЙ ЖИЗНИ</p> <p>Парпиева Нодира Тулкуновна Profi University, доцент кафедры “Начальное образование” кандидат физика-математических наук</p>	140
35.	<p>UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASASI O‘QUVCHILARINING MULOQOT MADANIYATINING OILADA SHAKLLANISHI</p> <p>Nizamova Nodira Paxritdinovna Profi University Nodavlat oliy ta‘lim muassasasi, Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri</p> <p>Ergasheva Nilufar Javoxir qizi O‘zbekiston miliy pedagogika universiteti oligofrenopedagogika yo‘nalishi 3- bosqich talabasi</p>	143
36.	<p>O‘SMIRLIK DAVRIDA EMOTSIONAL-IRODAVIY XUSUSIYATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI</p> <p>Djumabayeva Manzura Bagibekovna Toshkent Amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrasini dotsent v.b.</p>	147
37.	<p>OILA MUHITIDA IJTIMOYIY INTELLEKTNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI</p> <p>S.M. Tuychiyeva TAFU “Psixologiya” kafedrasini mudiri, p.f.n, professor v.b.</p>	151
38.	<p>OILADA BOLALARNI ADABIYOTGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASHDA OTA-ONANING ROLI</p> <p>G.A. Mamatova “Profi University”, PhD, dotsent</p>	154

39.	BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MATEMATIKA FANINI O‘RGANISHIDA OTA-ONANING ROLI Yuldasheva Ma‘mura Yulchiyevna Profi University, “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası dotsent v.b., Xalq ta‘limi a‘lochisi	157
40.	OILA VA MAKTABDA TARBIYAVIY QADRIYATLAR AHAMIYATI Galdiyeva Mehribon Durdiyevna Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrası dotsenti, Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)	160
41.	BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O‘RNI Axmedova Laylo Baxtiyor qizi Profi University, “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası dotsent vasifasini bajaruvchi Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	165
42.	ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA TEXNOLOGIYA TA‘LIMINI MODERNIZATSIYALASHGA OID MILLIY HUNARMANDCHILIK ISH USULLARINI O‘RGANISH VA OMMALASHTIRISH Tohirov O‘ktamjon Otaqo‘ziyevich Yangi asr universiteti dotsenti	169
43.	IJTIMOY TARMOQLARNING YOSHLAR PSIXOLOGIYASIGA SALBIY TA‘SIRI HAMDA UNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI. Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi Profi University Navoiy filiali “Pedagogika va psixologiya kafedrası (PhD) o‘qituvchisi Davronova Nigora Abduhamidovna Profi University Navoiy filiali 4-kurs “Pedagogika va psixologiya” sirtqi ta‘lim yo‘nalishi talabasi	182
44.	YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNI YAXSHILASHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI (“O‘tkan kunlar” romani misolida) Ulug‘murodova Kamola Murodullayevna Profi University, Navoiy filiali “Tillar” kafedrası mudiri, f.f.f.d, (PhD)	185

45.	<p>TARBIYASI OG‘IR O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHDA OILANING O‘RNI</p> <p>Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi Profi University, Navoiy filiali “Pedagogika va psixologiya” kafedrası (PhD) o‘qituvchisi</p> <p>Nematilloeva Shaxodat Shuxrat qizi Profi University, Navoiy filiali 4-kurs “Pedagogika va psixologiya” sirtqi ta’lim yo‘nalishi talabasi</p>	188
46.	<p>FARZAND KAMOLOTIDA OTANING GENDER MAQOMINING IJTIMOYIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI</p> <p>Otajonova O.A. psixol., fanlari nomzodi, dotsent Toshkent Amaliy fanlar universiteti</p>	193
47.	<p>OILADA FARZANDNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI VA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI</p> <p>Musulmanov Kuvonchbek Nasrulloevich Toshkent davlat transport universiteti E-mail: kuvonchbek.musulmanov@gmail.com</p> <p>Malikov Muhammad Axmad o‘g‘li Toshkent davlat transport universiteti, dosent</p> <p>Adizov Dilshodbek Alisher o‘g‘li Toshkent davlat transport universiteti, assistent</p>	197
48.	<p>FIZIKA TA’LIMIDA MARKAZIY OSIYO OLIMLARI ILMIY MEROSINI INTEGRATSIYALASH ORQALI YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH TENDENSIYALARI</p> <p>Xolmatova Dildora Baxromovna “Profi University”</p>	200
49.	<p>FARZAND TARBIYASIDA AXBOROTLASHUVNING SALBIY TA’SIRINI KAMAYTIRISH OMILLARI</p> <p>Saydametova Fazilat Jamoladdinovna Profi University, koordinator</p> <p>Xalimova Shaxnoza Raxmidjanovna Toshkent davlat transport universiteti, dotsent</p>	204
50.	<p>STRESSNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA’SIRI</p> <p>Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna Oriental universiteti o‘qituvchisi</p> <p>Xasanova Shaxzoda Dilshod qizi Oriental universiteti, Psixologiya yo‘nalishi 401-guruh, 2-kurs talabasi</p>	208

51.	O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK YONDASHUVLARI S.A. Maxmudova Qo‘qon universiteti, “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi	213
52.	TIKUVCHILIK ISHLARINI O‘RGATISH ORQALI YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI Qodirova Feruza Numanovna Qo‘qon pedagogika texnikumi, Ishlab chiqarish ta‘limi ustasi	217
53.	TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA YASHIL KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI HAYOTGA TAYYORLASH Ataboyeva Xumoraxon Muxammadjanovna Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti	223
54.	BARQAROR TARAQQIYOT YO‘LIDA AYOLLAR O‘RNI: ILM-FAN VA SIFATLI TA‘LIM Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna Oriental universiteti o‘qituvchisi Nosirova Zamira Xosil qizi Oriental universiteti o‘quvchisi Psixologiya yo‘nalishi PS/301-guruh, 2-kurs talabasi	225
55.	YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna Toshkent amaliy fanlar universiteti, “Pedagogika” fakulteti “Psixologiya” kafedrası assistent o‘qituvchisi	230
56.	OILADA FARZANDLARNI MILLIY QADRIYATLAR VA URF-ODATLAR RUHIDA TARBİYALASH Alibayev Doniyorjon Shuxratjonovich Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining tayanch doktoranti	234
57.	TEXNOLOGIYA TA‘LIMINI MODERNIZATSIYALASH ORQALI YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ROBOTOTEXNIKANING AHAMIYATI Tohirov O‘ktamjon Otaqo‘ziyevich Yangi asr universiteti dotsenti	236
58.	YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI Xakim G‘ofurovish Saidov Urganch Ranch texnologiya universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti, PhD.	242

59.	<p align="center">O‘QUVCHI-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI <i>(tushunchalar va ta’riflarning tahlili, mavjud konsepsiya va modellar xususiyatlari, mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni tanqidiy ko‘rib chiqish)</i></p> <p align="center">Xamutov Uchqun Irisvaevich mustaqil tadqiqotchi, Respublika ta’lim markazi direktor o‘rinbosari</p>	246
60.	<p align="center">ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ РЕБЁНКА</p> <p align="center">Санаев Алишер Комилжон угли Старший преподаватель кафедры непрерывного образования, Ориентал университет</p>	251
61.	<p align="center">YETUKLIK YOSHDAGI OSTEONDROZ BILAN XASTALANGAN BEMORLARDA EMOTSIONAL HOLATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI</p> <p align="center">Masharipova Saida Rahimovna Urganch RANCH texnologiya universiteti o‘qituvchisi</p>	254
62.	<p align="center">OILAVIY QADRIYATLAR BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLARNING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI</p> <p align="center">Sobirov Yangiboy Elmurot o‘g‘li TAFU katta o‘qituvchisi</p>	268
63.	<p align="center">OTA-ONA VA FARZAND O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA ZIDDIYATLAR</p> <p align="center">Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi</p>	272
64.	<p align="center">NOTO‘LIQ OILADA TARBIVALANAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IMKONIYATLARI</p> <p align="center">Eshpulatova Muhayyo Mardon qizi Profi University, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi</p>	275
65.	<p align="center">BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARIDA O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANISHIDA OILANING O‘RNI</p> <p align="center">Qaytarova Nargiza Kaxramonovna “Profi University” o‘qituvchisi</p>	279
66.	<p align="center">YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNI YAXSHILASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI</p> <p align="center">Raximova Gulxayo Alisherovna Toshkent amaliy fanlar universiteti, “Psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi</p>	285

67.	YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATI Tillayeva Nodira Iskandar qizi Toshkent Amaliy fanlar universiteti, Psixologiya kafedra o‘qituvchisi	290
68.	NIKOH VA OILAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TARIXI Barno Abduxalilovna Rustamova Oriental Universiteti, Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi	293
69.	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna Oriental universiteti, Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi e-mail: mirsagatovanargiza_@mail.ru	299
70.	O‘SMIR VA O‘SPIRINLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNI YAXSHILASHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Matyoqubova Shohista Odambov qizi Toshkent Amaliy fanlar Universiteti, “Psixologiya” kafedrasida assistent o‘qituvchisi	303
71.	YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI, TARAQQIYOT TENDENSIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLARI Toshmatova Xolidaxon Normatovna Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani 18-maktab amaliyotchi psixologi	307
72.	ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ILGARI SURILGAN TA’LIMIY-AXLOQIY QARASHLAR Raximova Intizor Rustamovna Urganch RANCH texnologiya universiteti, Pedagogika va aniq fanlar kafedrasida dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori	310
73.	BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI VA AHAMIYATI Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi Profi University Navoiy filiali “Pedagogika va psixologiya kafedrasida (PhD) o‘qituvchisi Avdurahmonova Hilola Tulqinovna Profi University Navoiy filiali 4-kurs “Pedagogika va psixologiya” sirtqi ta’lim yo‘nalishi talabasi	314

74.	<p>JAMIYAT VA OILA O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK VA YOSH OILALARNING IJTIMOYIY VA PSIXOLOGIK QIYINCHILIKLARI</p> <p>Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi Profi University Navoiy filiali “Pedagogika va psixologiya” kafedrası (PhD) o‘qituvchisi</p> <p>Baxodirova Dilnur Xusniddin qizi Profi University Navoiy filiali 2-kurs “Pedagogika va psixologiya”</p>	318
75.	<p>OILA VA NIKOH INSTITUTINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI</p> <p>Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi Profi University Navoiy filiali “Pedagogika va psixologiya” kafedrası (PhD) o‘qituvchisi</p> <p>Nazarova Umida Sadriddinovna Profi University Navoiy filiali 2-kurs “Psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabasi</p>	323
76.	<p>OILA INSTITUTINING IJTIMOYIY JIHATLARI HAMDA UNING PSIXOLOGIK ASOSLARI</p> <p>Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi Profi University Navoiy filiali “Pedagogika va psixologiya” kafedrası (PhD) o‘qituvchisi</p> <p>Xolmaxmadova Umida Abdurahmon qizi Profi University Navoiy filiali 1-kurs “Psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabasi</p>	327
77.	<p>OILA MUHITI VA SOG‘LOM TURMUSH TARZINING FARZAND SHAXSIGA TA’SIRI</p> <p>Inatullayeva Ra’no Yunusovna NamDU Tibbiyot fakulteti 1-bosqich talabasi</p> <p>Jo’raeva Odinabonu Jaxongir qizi Ilmiy rahbar: NamDU tibbiyot kafedrası dotsenti</p>	331
78.	<p>JAMIYAT VA OILA O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK: YOSH OILALARNING IJTIMOYIY VA PSIXOLOGIK QIYINCHILIKLARI</p> <p>Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi Profi University Navoiy filiali “Pedagogika va psixologiya” kafedrası (PhD) o‘qituvchisi</p> <p>Baxodirova Dilnur Xusniddin qizi Profi University Navoiy filiali 2-kurs “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabasi</p>	334

79.	OLIY TA’LIM TALABALARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI Raxmatova Dilbar Anvar qizi Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi Navoiy davlat universiteti doktaranti	338
80.	YOSH OILALARDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUV JARAYONINING MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI Odilbekov Mansurbek Maxmudjon o‘g‘li Oriental universiteti, Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi	342
81.	TALABALARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARI Djurayeva Shaxlo Qaxramon qizi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tayanch doktaranti	345
82.	ВОСПИТАНИЕ ЛЮБВИ ДОШКОЛЬНИКОВ В РАЗВИВАЮЩЕЙ ПРЕДМЕТНО-ПРОСТРАНСТВЕННОЙ СРЕДЕ Темирова Барно Киемхоновна Магистр	347
83.	МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР - АҲЛОҚИЙ ТАРБИЯНИНГ ЎЗИГА ХОС ОМИЛИ СИФАТИДА Исомиддинова Мафтуна Абдумалик қизи Наманган давлат педагогика институти Педагогика назарияси ва тарихи МПНТ-БУ-24 гуруҳ 2- босқич магистранти	350
84.	“OILA INSTITUTINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI” Ergasheva Umidaxon Isroiljon qizi Namangan Viloyati Uchqo‘rg‘on tumani 9-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining amaliyotchi psixologi	354
85.	OILAVIY TARBIYA USHLARINING BOLALAR RUHIYATIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI Miralimova Go‘zal Otabek qizi Profi University, “Psixologiya” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi	356
86.	ZAMONAVIY O‘ZBEK OILALARIDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI VA XUSUSIYATLARI Yunusova Dilrabo Ravshanjan qizi Profi University “Pedagogika va psixologiya” yo‘nalish talabasi	359